

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

Respublikamizda auditorlarni sertifikatlashtirish va malakasini oshirishdagi natijalarining samarasi.

Turumova Dildora Abdumannonovna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasи o'qituvchisi

[dildoraturumova1985@gmail.com](mailto:dildoraturumova1985@gmail.com)

Rayimqulova Muxlisa Oybek qizi

Jizzax politexnika instituti talabasi

[rahimqulovamuhlisa@gmail.com](mailto:rahimqulovamuhlisa@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqlada auditorlik faoliyati sohasining normativ-xuquqiy bazasini takomillashtirlishi natijasida auditorlik xizmatlari bozorida ijobjiy o'zgarishlar, ro'y berayotgani va qo'lga kiritilgan yutuqlar natijalari haqida, shuningdek auditorlar zimmasiga quyiladigan vazifa va chora tadbirlar to'g'risida so'z yurtdik.

**Kalit so'zlar:** malaka sertifikati, auditorlarni sertifikatlashtirish, MHXS, xalqaro standartlar, auditorlarning jamoat birlashmalari, malaka imtihonlari, auditorlar reyestri.

**Auditor** — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

**Auditorlar reyestri** — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlarning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati, bundan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shakllantiriladigan reyestr mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlariga auditorning malaka sertifikatini berish, qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirishi va uning amal qilishini tugatishi kiradi, bundan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan sertifikat mustasno hisoblanadi. Auditorning malaka sertifikatiga ega bo'limgan, auditorlik tashkilotida ishlovchi hamda auditorning topshirig'iga ko'ra auditorlik xulosasiga va auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq boshqa hujjatga imzo qo'yish huquqisiz auditorlik tekshiruvida ishtirot etadigan jismoniy shaxs auditorning yordamchisidir.

Auditorning yordamchisiga nisbatan uning auditorlik tekshiruvida ishtirot etishi chog'ida o'zi olgan ma'lumotlarni oshkor etmaslik majburiyati tatbiq etiladi.

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunning 18-moddasiga ko'ra, auditorlarning malakasini oshirish buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi xalqaro tashkilotda akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Auditor auditorning malaka sertifikatini olgan yildan keyingi yildan e'tiboran har yili auditorlarning malaka oshirish kurslaridan o'tadi.

Auditorlarning malakasini oshirish kurslari vakolatli davlat organi tomonidan auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda tasdiqlanadigan namunaviy dastur bo'yicha o'tkaziladi. Auditorning malaka sertifikati auditorning malakasini tasdiqlaydigan va unga auditorlik tashkiloti tarkibida auditorlik xizmatlarini ko'rsatish huquqini beradigan hujjatdir.

Sertifikat basharti talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatliligi topshirsa, vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan, qat'iy hisobotga oid hujjatdir.

Sertifikat dastlabki besh yillik muddatga beriladi, uning amal qilishi navbatdagi o'n yillik muddatga va keyinchalik muddatsiz davrga uzaytiriladi.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

Talabgorda xalqaro buxgalter sertifikati mayjud bo‘lgan hamda sertifikat olish uchun talabgor oliy ma’lumotga hamda oliy ta’lim tashkilotini tamomlaganidan keyin oxirgi o‘n yildan kamida uch yil buxgalteriya hisobi va audit sohasida yoki oliy ta’lim tashkilotida “Buxgalteriya hisobi” yoxud “Audit” fanidan dars berish sohasida ish stajiga (shu jumladan o‘rindoshlik asosida) ega bo‘lishi kerak, sertifikat unga malaka imtihonini topshirmagan holda dastlabki besh yillik muddatga beriladi va belgilangan davriylik bilan uzaytiriladi.

Sertifikat olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish uchun talabgorlarning bilimlarini malaka komissiyasi tomonidan tekshirish tartib-taomili malaka imtihonidir.

Malaka imtihonini o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Auditorda kamida o‘n yillik uzlusiz auditorlik ish staji mayjud bo‘lgan va belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda, sertifikatning amal qilish muddati malaka imtihoni topshirilmagan holda uzaytiriladi.

Malaka imtihonidan o‘ta olmagan talabgor, malaka imtihonini qayta topshirish uchun malaka imtihonida ishtirok etgan sanadan e’tiboran kamida bir oydan so‘ng hujjatlarni taqdim etishga haqlidir.

Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi asosida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan auditorning malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihonining shaffofligini ta’minlaydigan auditorlarni sertifikatlashning zamonaviy tizimini joriy etish, shuningdek, ushbu sohadagi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik va o‘zaro aloqalarni o‘rnatish maqsadida 2021-yil 15-avgustdan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi va auditorlarning respublika jamoat birlashmalarining zimmasiga yuklandi, bunga ko‘ra malaka imtihonlarining tashkil etilishi va tuzilishi, malaka imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rish uchun tavsiya etilgan materiallar va o‘quv dasturlari, shuningdek, malaka imtihonlari natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar auditorlar jamoat birlashmalarining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi; malaka imtihonlarida qatnashish uchun talabgorlar va auditorning malaka sertifikatiga ega auditorlar haqida ma’lumotlar bazasi auditorlarning jamoat birlashmalari tomonidan yuritilishi belgilandi.

Auditorlarning jamoat birlashmalariga quyidagi huquqlarga ega:

- malaka imtihonlarini tasdiqlangan tartib va reglamentga muvofiq o‘tkazish uchun mustaqil ravishda yoki birgalikda imtihon markazlarini tashkil etish;
- respublikaning barcha hududlarida malaka imtihonlarini tashkil etish va auditorlar malakasini oshirish maqsadida hududlardagi tarmoqlarni rivojlantirish.

2022-yil 1-avgustdan boshlab tajriba-sinov oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligidagi “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari bo‘yicha AXSni chuqur o‘rganishni nazarda tutuvchi yangilangan o‘quv dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish boshlangan bo‘lib, buxgaltyerlarni xalqaro sertifikatlash doirasida akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlarida tahsil olgan oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini 2022-yil 1-yanvardan rasmiy veb-saytida e’lon qilsin va doimiy ravishda uni yangilab borilmoqda.

Qarordan ko‘zlangan maqsad rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari asosida auditorlar uchun zamonaviy sertifikatlash tizimini joriy etish, auditor malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihonlari shaffofligini ta’minalash, shuningdek, ushbu sohadagi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin sheriklik va o‘zaro aloqalarni o‘rnatish orqali auditorlik kasbi nufuzini oshirishdir.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

Ushbu hujjatga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining auditorning malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihonlarini o‘tkazish, auditorning malaka sertifikatini berish, qayta rasmiylashtirish, amal qilish muddatini uzaytirish va amal qilishini tugatish, auditorlarning malakasini oshirish dasturlarini tasdiqlash funksiyalari 2021 yil 15 avgustdan boshlab auditorlarning jamoat birlashmalariga o‘tkazildi.

Moliya vazirligi auditorlarning jamoat birlashmalari bilan birgalikda auditorning malaka sertifikatini malaka imtihonidan o‘tmasdan berish uchun asos bo‘ladigan buxgalterlarning xalqaro sertifikatlari ro‘yxatini tasdiqlaydi, ularga malaka imtihonlarini tayyorlash va o‘tkazishda texnik-uslubiy yordam ko‘rsatadi. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi asosida imtihonlar o‘tkazish va natijalarni baholashning shaffofligini ta’minlovchi samarali auditorlarni sertifikatlash tizimini joriy etadi. Shuningdek, malaka imtihonlari, auditorlarning malakasini oshirish natijalari asosida axborot hamkorligini, auditorlik faoliyatining tashqi sifat nazoratini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshiradi.

Auditorlar jamoat birlashmalariga malaka imtihonlarini tasdiqlangan tartib va reglamentga muvofiq o‘tkazish uchun mustaqil ravishda yoki birgalikda imtihon markazlarini tashkil etish va respublikaning barcha hududlarida auditorning malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihonlarini tashkil etish va auditorlar malakasini oshirish maqsadida hududlardagi tarmoqlarni rivojlantirish huquqlari taqdim etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagagi PQ-4611-som qaroriga muvofiq akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlarida MHXS bo‘yicha o‘qitish, shuningdek, buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilmoqda. Bugungi kunga qadar buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotning akkreditatsiyasidan o‘tgan o‘quv markazlari tomonidan MHXS bo‘yicha (buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot”, “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR ACCA)” kurslari va boshqalar) o‘qitilgan 1277 nafar talabgorning 4 454,5 mln. so‘m o‘qitish xarajatlari qoplab berilgan. Shundan, 1149 nafari talaba va bitiruvchilar, 112 nafari oliy ta’lim muassasalarining “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari bo‘yicha pedagog kadrlari, 16 nafari davlat organi xodimlaridan iborat.

O‘quv kurslari kesimida tahlil qilinganda, 1189 nafar talabgorning “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” fani bo‘yicha, 53 nafar talabgorning “Audit va ishonch bildirish xizmatlari” fani bo‘yicha, 35 nafar talabgorning “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR ACCA)” fani bo‘yicha o‘qitish xarajatlari qoplab berilgan.

Shuningdek, bugungi kunga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihon topshirish xarajatlarini qoplash yuzasidan talabgor tomonidan kelib tushgan arizalarning 888 tasi bo‘yicha 1 456,4 mln. so‘m xarajatlar qoplab berilgan. Mazkur arizalarning 865 tasi talaba va bitiruvchilar, 5 tasi oliy ta’lim muassasasining “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari bo‘yicha pedagog kadrlari, 18 tasi davlat organi xodimlari tomonidan taqdim qilingan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘qitish va imtihon topshirish xarajatlarini qoplab berish amaliyoti natijasida, bugungi kunga qadar 285 nafar talabgor imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan. Shundan, 245 nafari “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” fani bo‘yicha, 30 nafari “Audit va ishonch bildirish xizmatlari” fani bo‘yicha va 11 nafari “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR ACCA)” fani bo‘yicha imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan.

# THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

## VOLUME-4, ISSUE-3

So'nggi yillarda auditorlik faoliyati sohasining normativ-xuquqiy bazasini takomillashtirlishi natijasida auditorlik xizmatlari bozorida ijobiylar o'zgarishlar ro'y bermoqda. Buning natijasida, auditorlik tashkilotlarining Auditorlik tashkilotlari reestriga kirish orqali faoliyat yuritish talabiga asosan, tashkilotlarning soni 2023-yilning yakunida o'tgan yilga nisbatan 12 taga oshib 138 taga yetdi. Shuningdek, auditorlar soni 2023-yilning yakunida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122 taga oshib 1003 nafarga yetdi. Bundan 24 foizi ayol, 76 foizi erkak auditorlar, 120 nafardan ortig'ida esa xalqaro sertifikatga ega auditorlar faoliyat yuritmoqdalar. Bundan ko'rinish turibdiki Respublikamizda auditor va buxgalterklar ish sifatini oshishiga motivatsiya va malakalari yildan yilga oshishiga yordam berilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.
2. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
3. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(8), 37-40.
4. Turumova, D. A., & o'g'li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.
5. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKİSTONDA İCHKİ NAZORAT TİZİMİ-AUDITORLIK TEKSHİRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
6. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 60-62.
7. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 290-294.
8. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(22), 243-248.
9. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 6-9.
10. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 15-18.
11. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 34-37.
12. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 57-60.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

13. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 136-140.
14. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK DALILLARINING AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA DOLZARBLIGI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 469-473).
15. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHNING AFZALLIGI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 474-478).
16. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA EKSPERT ISHLARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 483-487).
17. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK XULOSASIDA ASOS BOLUVCHI MALUMOTLAR-AUDITORLIK DALILLARI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 494-498).
18. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 225-229.
19. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDITOR ISHI SIFATINI NAZORAT QILISHDA AUDITORLIK STANDARTLARINING UYG'UNLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 265-270.
20. Abdumannonovna, T. D., & Habibullo G'anijon o'g, A. (2024). The Role of International Audit Organizations in the Transition to International Standards in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 1-6.
21. Abdumannonovna, T. D. (2024). An Understanding of the Auditor's Professional Ethics and its Importance in the Auditor's Work. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 7-11.
22. Abdumannonovna, T. D. (2024). LICENSING PROCEDURE OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND CURRENT RESULTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 35-40.
23. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
24. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 89-92.
25. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
26. Abdumannonovna, T. D. (2024). EFFECTIVE RESULTS OF APPLYING ANALYTICAL PROCEDURES IN AUDITING.
27. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
28. Abdumannonovna, T. D. (2024). Auditorlik Tekshiruvida Firibgarlikni Aniqlashda Professionallik Qobiliyatini Qo'llash. *Miasto Przyszlosci*, 45, 138-144.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-3

29. Abdumannonovna, T. D. (2024). NEW UZBEKISTAN AND THE MUTUAL INTERESTS OF THE "BIG FOUR" INTERNATIONAL AUDITING COMPANIES. *Miasto Przyszłości*, 45, 600-605.
30. Abdumannonovna, T. D. (2024). Audit Risk, its Elements and Their Assessment. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 847-854.
31. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDIT-AS A FACTOR OF INCREASING BUSINESS EFFICIENCY IN ENTERPRISES. *Miasto Przyszłości*, 45, 594-599.
32. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is "Audit Report and its Contents". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 991-997.
33. Abdumannonovna, T. D. (2024). Relationship With Auditing Standards in Controlling the Quality of Auditor's Work. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 998-1003.
34. Feruza, O. (2023). How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 12-17.
35. Yahyoyevna, O. F., & Alexandrovich, A. A. (2024). THE ROLE OF FINANCIAL MANAGEMENT IN IMPROVING THE FINANCIAL CONDITION OF ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 44-47.
36. Odilovna, U. Z., & Alexandrovich, A. A. (2024). ECONOMIC AND LEGISLATIVE CORNERSTONES OF INVESTMENT POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 87-90.
37. Yahyoyevna, O. F. (2024, February). RESPUBLIKAMIZDA AHOLI BANDLIGI MENEJMENTI MASALALARINI ISTIQBOLLARI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 25-31).
38. Yahyoyevna, O. F., & Tatulovna, Z. M. (2024). ISSUES OF PROVIDING ECONOMIC STABILITY UNDER THE INFLUENCE OF FACTORS OF SAVING. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 374-379.